



# Journal of Natural Science

№4  
(2021)

<http://natscience.jspi.uz>



<u>ТАХРИР ХАЙЪАТИ</u>	<u>ТАХРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p><b>Бош мухаррир –</b> У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p><b>Бош мухаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова,</b> PhD, доц.</p> <p><b>Масъул котиб-</b> Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Худанов У – Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.</li><li>2. Шылова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)</li><li>3. Кодиров Т- к.ф.д, профессор</li><li>4. Абдурахмонов Э – к.ф.д., профессор</li><li>5. Султонов М-к.ф.д, доц</li><li>6. Яхшиева З- к.ф.д, проф.в.б.</li><li>7. Рахмонкулов У-б.ф.д., проф.</li><li>8. Хакимов К –г.ф.н., доц.</li><li>9. Азимова Д- б.ф.н.</li><li>10. Мавлонов Х- б.ф.д., доц</li><li>11. Юнусова Зебо – к.ф.н., доц.</li><li>12. Гудалов М- фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)</li><li>13. Мухаммедов О- г.ф.н., доц</li><li>14. Хамраева Н- фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)</li><li>15. Рашидова К- фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>16. Мурадова Д- фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц</li></ol>
<p><b>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</b></p>	
<p>Журнал 4 марта чикарилади (хар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

**GEOGRAF MUTAXASSISLARI TAYYORLASHDA TURIZM  
GEOGRAFIYASINI O’QITISHNING AHAMIYATI**

**Usmanov Mashrab Rustamovich**

Jizzax davlat pedagogika instituti

E-mail: [mashrabusmonov79@gmail.com](mailto:mashrabusmonov79@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Geografiya mutaxassislari tayyorlashda turizm geografiyasini ahamiyati, turizm geografiyasi, rekreatsiya geografiyasi, tibbiyot geografiyasi, turist geografiyasi hamda turizmini rivojlantirish masalalariga to’g’risida ma’lumotlar keltirib o’tilgan.

**Kalit so’zlar:** Geografiya mutaxassislari, turizm geografiyasi, rekreatsiya geografiyasi, uzoq xorij, turizmni rivojlantirish milliy konsepsiyasini, turizmning ayrim muammolari, K. Shputs, A. Gettner, geograf kadrlar tayyorlash.

**Резюме.** В данной статье представлена информация о важности географии туризма в подготовке географов, географии туризма, рекреационной географии, медицинской географии, туристической географии и развитии туризма.

**Ключевые слова:** Специалисты-географы, география туризма, рекреационная география, дальнее зарубежье, национальная концепция развития туризма, некоторые проблемы туризма, К. Шпутс, А. Геттнер, подготовка географов.

**Resume.** This article provides information on the importance of tourism geography in the training of geographers, tourism geography, recreational geography, medical geography, tourist geography and tourism development.

**Key words:** Geography specialists, tourism geography, recreational geography, far abroad, the national concept of tourism development, some problems of tourism, K. Shputs, A. Gettner, training of geographers.

**Kirish.** Ma’lumki, hozirgi kunda turizm sohasini rivojlantirish mintaqalar iqtisodiyotini belgilashda ham muhim ahamiyatga ega bo’lib kelmoqda. Shu bois, mustaqillik yillarida mazkur tarmoqni yuksaltirish uchun ko’pgina ishlar amalga oshirildi, unga tegishli ma’rifiy va huquqiy asoslar yaratildi. Ammo shunga qaramasdan, mavjud imkoniyatlardan to’la foydalanilmayapti, binobarin, turizm mintaqalarda yaxshi rivojlanmagan. Bu esa turizmni geografik jihatdan tadqiq etish lozimligini, geograf mutaxassislari tayyorlash bu soxaga e’tibor berish kerakligini asoslab beradi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil uchun mo’ljallangan eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida “...turizmni

rivojlantirish, sohaga investitsiyalar jalb etish, kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha kompleks choralar ko'rishimiz lozim. Bizda turizm ko'pincha qadimiy shaharlarimiz, tarixiy-madaniy yodgorliklar doirasida cheklanib qolmoqda. Vaholanki, mamlakatimizning betakror tabiati, milliy qo'riqxonalar, tog'li xududlarda turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud. Ayniqsa, tibbiyot turizmi, ziyorat turizmi va ekoturizmni rivojlantirish nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy sohalar rivojiga ham katta turtki beradi. 2019-2025 yillarda Turizmni rivojlantirish milliy konsepsiyasini ishlab chiqish va shu asosda 2025 yilda yurtimizga tashrif buyuradigan xorijiy sayyolar soni 7 million nafarga, turizm eksportidan keladigan yillik daromadni esa 2 milliard AQSh dollariga yetkazish lozim” –deb vazifa berilganligini keltirib o'tish mumkin.

**Ishning maqsadi va vazifalari.** Binobarin, geografiya fani XX-asrning ikkinchi yarmiga kelib yangi yo'nalishlar, ya'ni aholiga xizmat ko'rsatish, tibbiyot, rekreatsiya va turizm kabi tarmoqlarni o'rgana boshladi. Shu jihatdan ushbu fanda turizmni hududiy tomonlariga ham qiziqish oshib bormoqda. Fanning tabiiy geografiya tarmog'i rekreatsiya resurslarini tabiiy geografik xususiyatlarini o'rgansa, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada esa turizm hamda rekreatsiya resurslarini baholash va ulardan foydalanish, hududiy turistik majmualar va turistik rayonlashtirishga katta e'tibor qaratiladi.

Turizm geografiyasi, rekreatsiya geografiyasi, tibbiyot geografiyasi, iqtisodiyot, tarix, demografiya va boshqa fanlar bilan bevosita aloqadorlikda, ya'ni tabiiy va ijtimoiy fanlar tutashgan joyda vujudga kelgan tarmoqdir. Turizm ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish, joylashtirish, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va aholi ijtimoiy muammolarini xal etishda, shuningdek, dam olish, sog'lomlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur fanning ko'pgina qirralari bilan “Uzoq xorij” davlatlaridan I.G.Kol, A.Gettner, R.Blansharom, A.Mariotti, V.Unitsiker, MDQ davlatlarida A.Yu.Aleksandrova, N.N.Baranskiy, Yu.A.Vedenin, S.R.Yerdavletov, P.N.Zachinyaev, I.I.Pirojnik, Yu.D.Dmitrevskiy, N.S.Falkovich va boshqa olimlar izlanishlar olib borgan. Ayni vaqtda, respublikamizda ham turizmning ayrim muammolari bo'yicha E.A. Ahmedov, Sh.A. Azimov, A. Zokirov, F.Komilova, A. Soliev, T.Toshmurodov, B. Qusanboev, N.To'xliiev, M.Usmanov kabi mutaxassislar shug'ullangan. Ammo mamlakatimizda ushbu yo'nalishning nazariy va amaliy asoslari maxsus yo'nalish sifatida kam o'rganilgan. Shu bois turizm geografiyasining mintaqaviy xususiyatlarini o'rganish, uning ijtimoiy-iqtisodiy geografyaning muhim yo'nalishi darajasida tadqiq etish ilmiy ahamiyatga egadir.

**Tadqiqod natijalari va ularning muhokamasi.** Turizm geografiyasining (TG) fan sifatida shakllanishi va rivojlanishida dastlabki izlanishlar XIX-asrning

ikkinchi yarmidan keyin I.G. Kol tomonidan olib borilgan. Bu tadqiqot dam olish, turizm geografiyasi bo'yicha ilk qadamlardan biri bo'ldi. Shu davrda nemis geografi A. Gettner ham o'z izlanishlarida TG o'ziga xos jihatlarini ochib berdi. U turizm geografiyasining predmeti bo'yicha ilmiy ishlar olib borib, yirik shaharlar atrofida tabiat va iqlim resurslaridan foydalanish xususiyatlariga katta e'tibor berdi.

“Turizm geografiyasi” terminini birinchi bo'lib fanga 1905 yilda D. Stradnerom kiritgan. U o'z izlanishlarida turistik faoliyatning xo'jalikni rivojlantirishdagi o'rniga alohida e'tibor qaratdi. K. Shputs (1919) esa turizmga moddiy texnik bazalarni yaratish lozimligini alohida ta'kidlaydi. Shu bilan birga u madaniy tadbirlar va tabiiy landshaftlarni turizm geografiyasining muhim ob'ekti sifatida o'rgandi.

Ta'kidlash joizki, ushbu fanning turli jabhalari bo'yicha xorijiy davlatlar olimlari ko'p izlanishlar olib borgan. Masalan, Fransiyada birinchi bo'lib R. Blansharom (1920) Alp tog'ida turizm xo'jaligi va turistik marshrutlarni tashkil etish bo'yicha ilmiy izlanishlar o'tkazdi. Shu davrda Italiyada A. Mariotti turizmning tarixiy bosqichlarini ajratdi va shu asosda uni o'rgandi. Bundan tashqari, 1930-40 yillarda ko'pgina davlatlar olimlari turizm va turizm geografiyasining ayrim qirralariga oid ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Jumladan, Germaniyada, Fransiyada, Shveysariyada, Yaponiya hamda AQShda turizmning ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy turistik resurslardan foydalanish va ularning imkoniyatlari to'g'risida ilmiy asarlar yaratilgan.

Yevropa va Shimoliy Amerika olimlari tomonidan hududlarni keng miqyosda o'rganish, ilmiy asosda dam olishni tashkil etish va mavjud muammolarni turistik va geografik tadqiqotlar zaminida o'rgandi. Ular o'zlarining ilmiy tavsiyalarida ishlab chiqarish va tabiiy muhit o'rtasidagi tafovutni chetlab o'tmadi. Shu bois, mazkur mintaqalarda turizm tez sur'atlar bilan o'sib bordi. Chunonchi, 1936-1939 yillarda turizm sohasi bo'yicha Krakovdagi Yagellon universitetida turistik kadrlar tayyorlashga katta ahamiyat berildi. Shu davrda polyak geografi S. Liship turizm geografiyasining ilmiy-uslubiy jihatlarini o'rganib, o'zining asarlarida “Turist geografiyasi” va “Turizm geografiyasi” terminlarini geografik adabiyotlarga kiritdi. U turizm geografiyasining o'rganishda statistika, xuquqshunoslik, madaniyatshunoslik va boshqa fanlar bilan aloqasini ilmiy-uslubiy jihatdan isbotladi, turistik tadqiqotlarda xaritaning muhimligini aloqida ta'kidladi.

**Xulosa.** Shunday qilib, bizning fikrimizcha, turizm geografiyasi keng qamrovli tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografik fanlar oralig'idagi nisbatan yangi tarmoqlardan biri bo'lib, u mintaqa yoki biror hududning tarixiy taraqqiyotidagi erishgan yutuqlari, madaniy hamda ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari, xo'jaligining yuksalishidagi o'rnini va o'ziga xos hududiy xususiyatlarini o'rganadi. Shu bois,

xulosa oʻrnida taʼkidlash joizki, geograf kadrlar tayyorlashda turizm geografiyasini oʻqitish, talabalarni mamlakatimizdagi sayyohlik imkoniyatlarining naqadar yuksak ekanligini oʻrgatish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

Ayni paytda JDPI tabiiy fanlar fakulteti Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yoʻnalishida keyingi yillarda mazkur sohaga jiddiy eʼtibor berilmoqda. Xususan 2021-2022 oʻquv yilidan boshlab Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasida “turizm va rekreatsiya geografiyasi” maxsus tanlov fan sifatida oʻqitilmoqda. Endigi vazifa talabalarni yurtimizning turistik obʼektlarini geografik nuqtai nazardan chuqur oʻrgatish, dala amaliyoti davomida keng qoʻllash maqsadga muvofiqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини 2017-2021 йилларда янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // [www.lex](http://www.lex.uz).
2. Маматқулов Х.М., Бердимуродов А.Ш., Бойназаров У.Э. Халқаро туризм географияси. Ўқув-услубий қўлланма, Самарқанд, 2017 й. 299 бет.
3. Гаррагов, А. (2020). Факторы индустриализации малых городов Узбекистана (на примере Джизакского вилоята). *Архив Научных Публикаций JSPI*.
4. Солиев А.С., Усмонов М.Р. “Туризм географияси”. Монография. Самарқанд, 2005 й.
5. Тухлиев И.С., Хайитбоев Р. Туризм асослари. Дарслик. Т.: Фан ва технология. 2014. 323 б.
6. Usmanov M.R. Turizm geografiyasi. Oʻquv qoʻllanma. – Samarqand, SamDU, 2019. 256 b.
7. Usmanov, M. R. (2021). The Prospective Of The Development Of Ecotourism In Jizzakh Region. *Journal of Geography and Natural Resources*, 1(01), 8-10.
8. Lapasovich, M. O., Nematovich, N. O., Yakubovich, Z. B., Rustamovich, U. M., & Tolipov, F. (2020). HISTORICAL AND ETHNOGRAPHIC CHARACTERISTICS AND SOCIO-SPIRITUAL FACTORS OF VISITING TOURISM IN UZBEKISTAN. *Journal of Critical Reviews*, 7(6), 47-50.
9. Komilova, N. K. (2021). TOURIST DESTINATION AS AN OBJECT OF RESEARCH OF SOCIAL AND ECONOMIC GEOGRAPHY. *Psychology and Education Journal*, 58(1), 2058-2067.
10. Usmanov, M. (2020). Туризм–иқтисодий ва ижтимоий географиянинг тадқиқод объекти сифатида. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1-5.
11. Холиқулов, Ш., & Ибодуллаев, Қ. (2020). Жиззах вилоятида экологик туризмни ривожлантириш истиқболлари. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1-7.

12. Komilova, N. K., Matchanova, A. E., Safarova, N. I., Usmanov, M. R., & Makhmudov, M. M. (2021). Some socio-economic aspects of gastronomic tourism study. *Estudios de economía aplicada*, 39(6), 12.
13. Usmanov, M. R. (2021). The Prospective Of The Development Of Ecotourism In Jizzakh Region. *Journal of Geography and Natural Resources*, 1(01), 8-10.
14. Усманов, М. (2020). Теоретика-методологические вопросы географии экологического туризма. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1-4.
15. Жиззах сув омбори ва ундан оқилонга фойдаланишнинг географик жихатлари I Abdullayev, J Holmirzayev - Архив Научных Публикаций JSPI, 2020
16. Холиқулов, Ш., & Мавлонова, С. (2020). Ўзбекистонда туристик имкониятлардан фойдаланишнинг географик жихатлари. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1-7.
17. <https://uzbektourism.uz>
18. <https://stat.uz>